

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

HAZRATOV NURALI BURHON O'G'LI

**ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI KESH VILOYATINING
TARIXIY GEOGRAFIYASI**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Hazratov Nurali Burhon o‘g‘li

Antik va ilk o‘rta asrlar davri Kesh viloyatining tarixiy geografiyasi..... 5

Хазратов Нурали Бурхон угли

Историческая география Кешской области эпохи античности и раннего средневековья..... 25

Khazratov Nurali Burhon ugli

Historical geography of the Kesh region in anticity and early middle ages..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

HAZRATOV NURALI BURHON O'G'LI

**ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI KESH VILOYATINING
TARIXIY GEOGRAFIYASI**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2.PhD/Tar1472 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xushvaqov Nabi Olimovich
tarix fanlari doktori

Rasmiy opponentlar: Raimqulov Abdusabur Azzamovich
tarix fanlari doktori

Karimov Bahrom Djalolovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Yetakchi tashkilotlar: Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "23" 05 soat 11⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04, faks: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (270 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" 05 kuni tarqatildi.
(2025-yil "10" 05 daqiqa 13 raqamli restr bayonnomasi bilan).



B.J. Eshov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash raisi, t.f.d.,
professor

N.N. Rajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash kotibi, t.f.n.,
dotsent

Yu.A. Ergasheva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahondagi globalashuv sharoitida tarixiy-madaniy merosni saqlash, asrab-avaylash hamda borligicha avlodlarga yetkazish bugungi kunda tobora dolzarblik kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi tarixiy, tabiiy meros hududlarida ilmiy, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar faoliyatida uzoq va yaqin o'tmishda bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni tadqiq etish, jahon sivilizatsiyasi markazlaridagi o'zaro aloqalar masalalarini har tomonlama o'rganish, ularning natijalarini faollik bilan ilmiy muomalaga kiritish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada antik va ilk o'rta asrlarda Kesh viloyatining tabiiy tarixiy geografiyasi, aholi tarixiy geografiyasi, xo'jalik (iqtisodiy) tarixiy geografiyasi, siyosiy tarixiy geografiya tarixi bilan bog'liq shu mintaqaga xos xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning yetakchi davlatlarining ilmiy-tadqiqot markazlarida tarixiy geografianing o'ziga xos jihatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha tizimli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda jahon mamlakatlarida tobora rivojlanib borayotgan xalqaro turizmning taraqqiyoti jarayonlari ko'p hollarda madaniy meros va tarixiy geografiya bilan bog'liq. Shu boisdan tarixiy bilimlarning rivojlanishi jarayonlarini ilmiy tadqiqotlar doirasiga tortish zamirida jahondagi turli-tuman tarixiy-madaniy viloyatlarni o'rganish ahamiyatining reallashuvi, ularning iqtisodiy-kommunikativ jihatlarini hamda xususiyatlarini ilmiy-qiyosiy tahlil etish muhim hisoblanadi. Bu tadqiqotlarda tarixiy geografianing tabiiy, aholi, iqtisodiy va siyosiy tarixiy geografiyasi tarixini asoslarini ochib berishga dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonning qadimiy va boy tarixi, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, madaniy merosni asrash hamda turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani tahsinga sazovor. Zero, "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"¹. Bu borada hozirgi davr tadqiqotlarida antik va o'rta asrlar davri tarixiy geografiya muammosi ilmiy masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. O'zbekiston hududining tarixiy geografiyasi, xususan, antik va ilk o'rta asrlar davri Kesh viloyatining tarixiy geografiya jarayonlarini yoritishga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borilishi tanlangan mavzuning ilmiy ahamiyatini ko'rsatadi. Bu esa, Yangi O'zbekiston sharoitida tarixiy bilimlar rivojlanishini yanada takomillashtirish, turizm taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda tarixiy merosni asrab-avaylashga e'tiborni kuchaytirishni talab etadi. Ushbu jarayonlarni antik va ilk o'rta asrlar davri tarixi asosida xolisona tahlil etib, ilmiy muomalaga kiritish dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-600-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2018-yil 28-noyabrda

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ. 2017. – Б. 29.

PQ–4038-son “O‘zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2018-yil 19-dekabrda PQ–4068-son “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-avgustdagi 621-son qarorlari, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida va sohani rivojlantirishga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli dasturiy ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi².

Mustaqillik yillarida qadimgi tarixiy-madaniy jarayonlarni o‘rganish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar, arxeologik adabiyotlar tahlili bo‘yicha olib borilgan umumlashtiruvchi, fundamental tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi. Yuqoridagi holatlarni hisobga olib, ilmiy tadqiqotlar ananasiga ko‘ra, dissertatsiya mavzusiga doir bo‘lgan adabiyotlar to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganildi:

1. Antik va ilk o‘rta asrlardagi tarixiy geografik ma‘lumotlar.
2. Sovet hukmronligi davridagi Sug‘d, xususan, Kesh tarixi va madaniyatiga oid nashr etilgan ilmiy adabiyotlar, maqola va risolalar.
3. Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar.
4. Xorij tarixshunosligida muammoning talqini.

Birinchi guruh adabiyotlarini Antik va ilk o‘rta asrlar davriga oid arab va fors tilidagi ma‘lumotlar tashkil etadi. Xususan, bir qancha tarixchilar Gerodot, Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Muqaddasiy va Ibn Havqal asarlarida qadimgi Kesh hududi xususan, Sug‘dda kechgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlarga etibor qaratilgan³.

Ikkinchi guruhga sovet davri O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga oid adabiyotlar mohiyati va mazmuniga ko‘ra kommunistik mafkura, sinfiylik nuqtayi nazaridan yondashilganligi bilan xarakterlansa-da, ularda mintaqa miqyosidagi tarixiy geografiya masalalar maxsus tadqiqot obyektiga aylanmagan. Biroq tarixiy geografiya masalalarini o‘zida aks ettirgan asarlar jumlasiga G.Ya. Dresvyanskaya, S.B. Lunina, X.S. Sultanov, I.A. Remez, V.V. Bartold, V.L. Vyatkin, A. Semyonov, E.V. Rtveladze, A. Sagdullayev, A.H. Hamroyev, O.D. Chexovich, M.A. Abduraimov, A. Majlisov, T.G. Tuxtametov, B.I. Iskandarov, A.R. Muhammadjonov, T. Nematov, A.M. Aminov, N.A. Kislyakov, O.A. Suxareva,

² Мавзунинг ўрганилганлик даражаси ишнинг 1-бобида батафсил берилди.

³ Геродот. История в девяти книгах. Пер. и примечания С.Г. Стратановского. – Л., 1972; Арриан. Флавий. Поход Александра / Пер. М.Е. Сергеевко. – М.–Л.: Изд-во Акад. наук СССР, 1962; Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Под. редакции. В.С. Соколова. – М., 1963; Ибн Хавкал. “Китоб сурат ал-ард. Мовароуннахр”. – Тошкент, 2011.

M.Ye. Masson, G.A. Pugachenkova, L.Y. Mankovskaya, N.N. Krashennikova, Z. Usmonova⁴larning tadqiqot ishlarini kiritishimiz mumkin.

XX asrning 90-yillarigacha qadimgi Kesh-Shahrisabz arxeologiyasi va tarixiga oid ma'lumotlar asosan Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) qoshida tashkil etilgan KATE (Kesh arxeologik topografik ekspeditsiyasi) a'zolarining nashr ettirgan ishlarida uchraydi⁵.

Uchinchi guruh adabiyotlariga oid mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Sug'diyona, xususan, Kesh-Shahrisabzning tarixi va madaniyatini tadqiq etish borasidagi tadqiqotlar kengayib bordi. Janubiy Sug'diyonadagi aholining antik va ilk o'rta asrlardagi turli migratsiyalari natijasida tabiiy geografik landshaftning o'zgarishi va hududlarda kechgan tarixiy jarayonlarni o'rganish bo'icha samarali izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar orasida Keshning tarixiy geografiyasiga oid ishlar ham qisman bo'lsa-da, mavjudligini e'tirof etish lozim.⁶

Mustaqillik yillarida A. Raimqulov "Janubiy Sug'dning VIII-XIV asrlar davri tarixiy topografiyasi" va F. Egamberdiyev "Kesh vohasi ilk o'rta asrlar davri qishloqlari tarixi va madaniyati" mavzusida tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Kesh vohasidagi qishloqlarni yozma va arxeologik ma'lumotlar bilan taqqoslash, Kesh vohasida ilk o'rta asrlar davri qishloq makonlarining shakllanish va rivojlanish dinamikasini ochib berish, Keshni ilk o'rta asrlar davri yodgorliklarining topografik va tipologik klassifikatsiyasini aniqlash, qishloqlarining me'moriy xususiyatlari, usullari, xomashyosi va ichki tuzilishini tahlil etgan⁷.

To'rtinchi guruh Xorij tarixshunosligida muammoning talqini bo'lib, xorijiy davlatlarda ham qadimgi davr bo'yicha tarixchi olimlar tomonidan o'rganib kelingan⁸. Tarixiy geografiya va insoniyat tomonidan o'zlashtirilishiga olib kelgan vohalar landshaftini rivojlanishini "Antropogen landshaft" ilmiy termini dastlab XX asrning boshlarida V.P. Semenov-Tyanshanskiy tomonidan kiritilgan. Bu ilmiy

⁴ Усмонова З. Новые данные к исторической топография г. Шахрисабза. – Ташкент: Фан, 1965. – Б. 19-64.

⁵ Дресвянская Г.Я., Лунина С.Б., Х.С. Султанов и Усманова З.И. Шахрисабз. 1-2 том. – Тошкент: Университет, 1983.

⁶ Эшов Б. Милоддан аввалги VII-IV асрларда Суғдиёна тарихи ва маданияти. Тар.фан.номз.дисс. автореферати. – Тошкент, 1999. – 248 б.; Ўша муаллиф. Қадимги Суғд тарихи ва маданиятидан лавҳалар. – Қарши, ҚарДУ нашриёти, 2023. – 162 б.; Ражабова Н.Н. История изучения археологических памятников долины Кашкадарьи. Автореферат канд. дисс. – Ташкент, 2007. – С. 23; Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Шарқ, 1998. – С. 172; Шахрисабз – минг йиллар мероси. Китоб – альбом. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Шарқ, 2007. – С. 210; Равшанов П. Шахрисабз тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – С. 287; Раимқулов А.А. Катта Суғд-Суғдиёна. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2017. – С. 208; Ғоипов Б. Суғд тарихидан лавҳалар. – Самарқанд, 2020. – С. 117; Мирбобоева Т.Х. Вклад Согда и Согдийцев в Великий шёлковом пути. Автореф.дисс.канд.ист.наук. Худжанд. 2005. – С. 26; Камолитдин Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по аробязвечным источникам IX – нач. XIII вв. – Тошкент: Ўзбекистан, 1996. – С. 310. ва бошқ.

⁷ Раимқулов А.А. Жанубий Суғднинг VIII-XIV асрлар даври тарихий топографияси. Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 2018; Эгамбердиев Ф.П. "Кеш воҳаси илк ўрта асрлар даври қишлоқлари тарихи ва маданияти". Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2022. – Б. 8.

⁸ Наследники Шелкового пути. Узбекистан: Каталог выставки. – Штутгарт, 1997. – С. 110; Айбиндер М.И., Новикова И.А. Культурологический аспект деятельности музеев США. Учебное пособие. – Спб., АОС, 2002. – С. 132;

g'oya S.V. Kolesnik⁹, N.A. Solnsev¹⁰, A.G. Isachenko¹¹ va boshqalar tomonidan tarixiy vohalar kesimida rivojlantirildi. Ammo Sug'diyonaning janubidagi Kesh vohasining tarixiy geografiyasi bo'yicha dissertatsiyaviy tarzda tadqiqot olib borilmagan.

Qashqadaryo hududlari qadimgi gidrografik tizimining o'zgarishi asosiy sababi irmoqlar suvi miqdorining o'zgarishiga bog'liq bo'lgan va suv miqdorini o'lchami iqlim sharoitlari bilan chambarchas bog'liq holda kechganligi, aholi esa daryolar va uning irmoqlari atrofini o'zlariga qulay xo'jalik turiga moslashtirib, hayot kechirganligi ko'rib chiqilgan¹².

Xullas, qadimgi davr bo'yicha ilmiy maqolalar, monografiyalar va o'quv qo'llanmalar yaratilgan, ammo hozirgacha Keshning antik va ilk o'rta asrlarga oid tarixiy geografiyasi va geografik muhitni tasiri yaxlit tarzda dissertatsion tadqiqot sifatida tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy talim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qarshi davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Qashqadaryo vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri tarixiy topografiyasi yozma va arxeologik manbalar asosida" tadqiqotlar loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Antik va ilk o'rta asrlar davri Kesh viloyatining tarixi, madaniyati, yozma va arxeologik manbalar, janubiy Sug'ddagi o'ziga xos xususiyatlar, moddiy madaniyati va tarixiy geografiya masalalarini tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sug'dning tarixiy geografiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni tahlil etish;

Kesh (Sug'd) viloyati bo'yicha yozma manbalarning tahlillarini o'rganish;

Qadimgi Kesh tarixi va madaniyatiga oid arxeologik yodgorliklardagi ma'lumotlarini ilmiy-qiyosiy tahlil etish;

Sug'dning tarixiy geografiyasi masalalarini ko'rib chiqish;

Kesh vohasining tabiiy shart-sharoitlarini o'rganish;

Kesh shahri va viloyatining tarixiy-geografik chegaralarini ko'rsatib berish;

Sug'd vohasining davlatchiligi va siyosiy tarixini yoritib berish;

Sug'diyonaning ichki va tashqi siyosatida Kesh viloyatining o'rni o'rganish;

⁹ Колесник С.В. Энциклопедический словарь географических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1968. – 300 с.

¹⁰ Солнцев Н.А. Природный ландшафт и некоторые его общие закономерности. – Труды II Всесоюзного географического съезда. Т. 1. – М.: Географгиз, 1948. – С. 258-269; Солнцев Н.А. Основные проблемы советского ландшафтоведения // Известия ВГО. – № 1. 1962. – С. 3-14; Солнцев Н.А. Природная география, ландшафтоведение и естествознание // Вестник Моск. ун-та, серия географ. – №1.1977. – С. 10-15; Солнцев Н.А. Учение о ландшафте: Избранные труды. – М.: Изд-во МГУ, 2001. – 383 с.

¹¹ Исаченко А.Г., Шляпников А.А. Ландшафты. – М.: Мысль, 1989. – 504 с.; Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование: Учебник для вузов. – М.: Высшая школа, 1991. – 366 с.; Исаченко А.Г. Введение в экологическую географию: Учебное пособие. – СПб.: Издат. дом СПбГУ, 2003. – 192 с.; Исаченко А.Г. Введение в экологическую географию. – СПб.: Издат. дом СПбГУ, 2003. – 192 с.; Теория и методология географической науки / А.Г. Исаченко. – М.: Академия, 2004.; Исаченко А.Г. Ландшафтная структура Земли, расселение, природопользование. – СПб.: Издат. дом СПбГУ, 2008. – 320 с.

¹² Мамедов Э.Д. Изменения климата Среднеазиатских пустынь в голоцене. В кн. Колебания увлажненности Арало-аспийского региона в голоцене. – М.: Наука, 1980. – С. 170-175.

Antik va ilk oʻrta asrlar davri Kesh viloyatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini oʻrganishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qadimgi Kesh viloyatining tarixiy geografiyasi boʻyicha mavjud ilmiy taxminlarga yozma va arxeologik maʼlumotlar asosida aniqlik kiritilib, uning antik va ilk oʻrta asrlar chegaralari janubga Bobotogʻ tizmalari, shimolda Urguttogʻ tekisligi, gʻarbda Eskianhor kanali, sharqda Yakkabogʻ tekisligi, janubda qisman Qamashi va Gʻuzor tumanlari bilan chegaralanganligi dalillangan;

Antik va ilk oʻrta asrlar davri Kesh tarixiy viloyatining rivojlanishida joylashuv omillari (iqlim sharoiti, savdo yoʻllari tasiri), qoʻshnichilik (Samarqand, Buxoro va Termiz) munosabatlari, ayrim hollarda migratsiya jarayonlari sabab boʻlganligi, bu davrda oʻzaro jiddiy siyosiy mojarolar yuz bermaganligi aniqlangan;

Oʻrganilayotgan davrda yozma manbalarga koʻra, Kesh viloyatining butun Sugʻdiyoning ichki va tashqi aloqalaridagi mavqei kuchli boʻlganligi, arablar bosqini (VIII asr) davrida esa Kesh viloyatining juda katta hududlarda bosqinchilarga qarshi Muqanna qoʻzgʻoloni markaziga aylanganligi, Muqanna qarorgohi harbiy jihatdan juda strategik qulay qadimiy Keshning Yakkabogʻ togʻlarida joylashganligining chuqur qiyosiy tahlillar asosida tarixiy geografiyasi dalillangan;

Antik va ilk oʻrta asrlar davri Keshlik savdogarlarning Buyuk ipak yoʻlidagi faol harakatlari (Xitoydagi Tan imperiyasiga koʻchib ketgan Keshlik Verkak ismli zodagon va uning qarindoshlari misolida), Qoshgʻar va Urumchidagi Sugʻd qishloqlarida Kesh savdogarlarining mavqeyi, savdo-iqtisodiy munosabatlardagi tarixiy oʻrni asoslab berilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Kesh viloyatining antik va ilk oʻrta asrlar davri tabiiy shart-sharoitlari, tarixiy geografiyasi, tarixiy chegaralari kabi masalalar tanlangan.

Tadqiqot predmeti antik va ilk oʻrta asrlar davri Kesh viloyatining tabiiy tarixiy geografiyasi, aholi tarixiy geografiyasi, xoʻjalik tarixiy geografiyasi va siyosiy tarixiy geografiyasini yoritish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, ilmiy tavsiflash, tasniflash, tarixiy-arxeologik va yozma manbalar maʼlumotlarini umumlashtirish, tizimli tahlil mavzu boʻyicha ilmiy qarashlar va konsepsiyalarning qiyoslash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: Antik va ilk oʻrta asrlar davri Kesh viloyati tarixini tahlil qilish asosida tarixiy toponomika, tarixiy geografiya, Kesh rustoqlarining joylashuvi, yodgorliklar tasnifi maʼlumotlar orqali koʻrsatib berilib, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Oʻrganilayotgan davr Kesh viloyatining tarixi, viloyatning turli aloqalari, tarixiy toponomikasi va geografiyasi, viloyat hududidan oʻtuvchi qadimgi yoʻllar va yoʻnalishlar oʻrganilib yozma hamda arxeologik maʼlumotlar qiyosiy tahlil qilingan. Koʻplab tahlillar asosida oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha muxtasar xulosalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada mavzuga oid adabiyotlar, arxiv materiallari, yozma manbalar, xalqaro konvensiyalar, ilmiy

safarlar ma'lumotlari kabi turli xarakterdagi birlamchi manbalarga asoslanilganligi, yozma manbalar, qazishma ishlarida qo'lga kiritilgan arxeologik materiallardan foydalanilganligi, arxeologiya va muzeyshunoslik fani yo'nalishlarida tan olingan usullar va nazariy yondashuvlarning qo'llanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Antik va ilk o'rta asrlar davri Kesh viloyatining tarixiy geografiyasi ustida olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Qadimgi Kesh viloyatining tarixiy geografiyasi bo'yicha mavjud ilmiy qarashlarga yozma va arxeologik ma'lumotlar asosida aniqlik kiritilib, uning antik va ilk o'rta asrlar chegaralari janubga Bobotog' tizmalari, shimolda Urgubtog' tekisligi, g'arbda Eskianhor kanali, sharqda Yakkabog' tekisligi, janubda qisman Qamashi va G'uzor tumanlari bilan chegaralanganligi haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi materiallarini boyitishda foydalanilgan (Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondining 2023-yil 15-apreldagi 01-29-son ma'lumotnomasi). Natijada Qadimgi Kesh viloyatining tarixiy geografiyasi bo'yicha mavjud ilmiy taxminlarga yozma va arxeologik ma'lumotlar asosida aniqlik kiritilib, O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligini yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qilgan.

Antik va ilk o'rta asrlar davri Kesh tarixiy viloyatining rivojlanishida joylashuv omillari (iqlim sharoiti, savdo yo'llari ta'siri), qo'shnichilik (Samarqand, Buxoro va Termiz) munosabatlari, ayrim hollarda migratsiya jarayonlari sabab bo'lganligi, bu davrda o'zaro siyosiy mojarolar yuz bermaganligi aniqlangan va ushbu ma'lumotlardan Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xalqaro "Oltin Meros" xayriya jamoat fondining 2023-yil 15-apreldagi 01-29-son ma'lumotnomasi). Natijada Antik va ilk o'rta asrlar davri Kesh tarixiy viloyatining rivojlanishida joylashuv omillariga oid ma'lumotlarni o'rganishga xizmat qilgan.

O'rganilayotgan davrda Kesh viloyatining butun Sug'diyonaning ichki va tashqi aloqalaridagi mavqeyi kuchli bo'lganligi, ayniqsa, arablar bosqini (VIII asr) davrida Kesh viloyati juda katta hududlarda bosqinchilarga qarshi Muqanna qo'zg'oloni markaziga aylanganligi, Muqannaning ko'plab ilmiy bahslarga sabab bo'layotgan qarorgohi aynan Kesh chegaralaridagi Yakkabog' tog'larida joylashganligi chuqur qiyosiy tahlillar asosida dalillanganligi haqidagi ma'lumotlardan "Taqdimot" ko'rsatuv tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 29-yanvardagi 02-31-123-son ma'lumotnomasi). Natijada O'rganilayotgan davrda Kesh viloyatining butun Sug'diyonaning ichki va tashqi aloqalaridagi mavqei kuchli bo'lganligi, ayniqsa, arablar bosqini (VIII asr) davrida Kesh viloyati juda katta hududlarda bosqinchilarga qarshi Muqanna qo'zg'oloni markaziga aylanganligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatuv mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

Antik va ilk o'rta asrlar davri Keshlik savdogarlarning Buyuk ipak yo'lidagi faol harakatlari (Xitoydagi Tan imperiyasiga ko'chib ketgan Keshlik Verkak ismli zodagon va uning qarindoshlari misolida), Qoshg'ar va Urumchidagi Sug'd

qishloqlarida Kesh savdogarlarining mavqei, savdo-iqtisodiy munosabatlardagi tarixiy o'рни asoslanganligi kabi ma'lumotlardan "Tarixiy savol" ko'rsatuvi senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 20-sentabrdagi 06-28-845-son ma'lumotnomasi). Natijada Kesh savdogarlarining mavqeyi, savdo-iqtisodiy munosabatlardagi tarixiy o'рни asoslab berilgan ma'lumotlar ko'rsatuv mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati antik va ilk o'rta asrlar davri Kesh viloyati tarixiy geografiyasi saqlanayotgan metodologik yondashuvlar hamda nazariyalar bo'yicha nazariy-amaliy xulosalarni mukammallashtirishda foydalanish bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, O'zbekistonning qadimgi tarixi, moddiy-madaniy merosni o'rganish, saqlash, tadqiq etishga bag'ishlangan maqsadli davlat dasturlarining bajarilishini takomillashtirishga, shuningdek, oliy o'quv yurti tarix yo'nalishi talabalari uchun "Tarixiy geografiya", "Tarixiy o'lkashunoslik" kurslari bo'yicha maxsus kurslar, shu bilan birga O'zbekiston tarixining tegishli bo'limlarini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, xorijiy jurnallar va konferensiyalarda 4 maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 137 varaqni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, muammoning o'rganilganlik darajasi tavsiflangan, ishning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Kesh viloyati tarixiy geografiyasining o'rganilishi tarixi**" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobning birinchi paragrafidan "*Qadimgi Sug'd tarixiy geografiyasi bo'yicha qilingan tadqiqotlarning tahlillari*", xususan, Qadimgi Sug'd o'lkasining siyosiy-ma'muriy bo'linishi to'g'risida tadqiqotlarning tahlillariga bag'ishlangan.

Sug'd tarixiy o'lkasi bo'yicha qariyb bir yarim asrdan beri ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bo'lib, chop etilgan turli nashrlarda ushbu tarixiy o'lkaning siyosiy-ma'muriy bo'linishi to'g'risida tadqiqotchilar orasida farqli yondashuvlar

borligi va bu holat hozirgi kunda ham davom etayotgani ko'zga tashlanadi. Xususan, bir guruh tadqiqotchilar Sug'd yoki Sug'd o'lkasi deganda Zarafshon va Qashqadaryo daryolari havzalaridagi shimoli Ustrushona (Jizzax), janubi Baqtriya-Toxariston, g'arbi Amudaryoning o'rta oqimi hamda sharqi Toxaristonning shimoli-sharqi va Ustrushonaning janubi-sharqi bilan o'ralgan, bugungi Panjikent tumani hamda Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarini o'z ichiga olgan tarixiy o'lkani tushunsalar, bir guruh tadqiqotchilar esa Buxoro vohasiga alohida tarixiy-geografik obyekt sifatida qarab, Zarafshon daryosining yuqori va o'rta oqimidagi Panjikent, Samarqand va uning atroflari hamda Qashqadaryo vohasi (Kesh-Naxshab)ni Sug'd o'lkasi, deb qaraydilar. Keyingi o'n yilliklarda esa ilmiy adabiyotda "Sug'd konfederatsiyasi", "Sug'd hukmdorliklari", "Sug'd mulkdorliklari", "Markaziy Sug'd" degan tushunchalar qo'llanilayotgani ko'zga tashlanayapti¹³.

Fikrimizcha, Sug'd o'lkasi tarixini yoritishda bunday yondashuvlarning o'rta qadimga chiqishi bekorga emas. Bu o'lka qadim va ilk o'rta asrlarda o'zini ijtimoiy va etnomadaniy jihatdan yaxlit bir o'lka sifatida namoyon qilgan bo'lsa-da, vohaning siyosiy tomondan asrlar davomida bir necha hukmdorliklar-mulkliklarga bo'linib boshqarilishi Sug'd o'lkasi borasida farqli tushunchalar paydo bo'lishiga olib kelgan. Aslida XX asr boshlarida yetuk sharqshunos V.V. Bartold arab va fors geograflari (IX-XII asrlar) asarlariga tayanib olib borgan tadqiqotlarida umumsug'd bilan birga Markaziy Sug'dning tarixiy geografiyasiga ham birmuncha to'xtalib o'tgan.

Sug'd o'lkasini nisbatan yuzaki bilgan yoki ilmiy qiziqishi bu masalaga maxsus qaratilmagan tadqiqotchilarning ishlarida Sug'd deyilganda ko'proq keng va nisbiy tushuncha yoyilgan. Bu masalada chuqur izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar esa Sug'd o'lkasining mazmun-mohiyatini yaxshi bilgan holda masalaga boshqacha yondashganlar. Bu toifadagi izlanuvchilar Sug'd o'lkasi deganda ko'proq Samarqand Sug'di, Sharqiy Sug'd (Panjikent) va Janubiy Sug'd (Qashqadaryo)ni tushunadilar va Buxoro vohasining hech qachon bu tushunchaga kirmaganiga urg'u qaratadilar. Ya'ni Buxoro qadimda va ilk o'rta asrlarda Samarqand yoki Janubiy Sug'd bilan bitta siyosiy-ma'muriy birlikka ega bo'lmagan.

Sug'dning Samarqand, Kesh-Naxshab, Buxoro Sug'di kabi bo'linishlari to'g'risida ko'p yozilgan bo'lsa-da, Kesh va Naxshab tushunchalari Sug'd tarkibida o'zaro farqlangani va har ikki hududning nisbiy alohidaligi yuzasidan maxsus yechimlar kam. Binobarin, Kesh va Naxshab vohalari "Qashqadaryo Sug'di" nomi bilan birlashtirilib kelinadi.

Kesh-sharqiy Qashqadaryoda joylashgan qadimgi tarixiy-madaniy viloyatdir. Keshning tarixiy geografiyasiga oid XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran fan tasarrufidagi manbalarni umumlashtirish asosida bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Keshning qadimiy tarixi davriga oid aholining geografik hududlardagi joylashuvi,

¹³Бобоёров Ф. Турк хоқонлиги даврида Суғд (бошқарув тизими) // Шарқшунослик, №11. – Тошкент, 2000. – Б. 119-129; Гойибов Б.С. Место владения Панч в конфедерации Согда (на примере раннего средневековья). Автореф. дисс. на соискание учен. степ. канд. ист. наук. – Ташкент, 2011; Гойибов Б. Суғд тарихидан лавҳалар. – Самарқанд, 2020. – Б. 7–10.

tarixi, iqtisodiy xo‘jaligi va madaniy hayotini aniqlashda yozma manbalarning tahlili katta yordam beradi. Ammo bunday yozma manbalar juda kam, shu sababli ko‘proq arxeologik yodgorliklarning joylashuviga qarab xulosa qilishga to‘g‘ri keladi. Tadqiqot davomida yig‘ilgan etnografik ma‘lumotlar-aholining kelib chiqishi, etnik tarkibi, iqtisodiy xo‘jaligining o‘ziga xosligi va madaniy jarayonlarni aniqlashda katta yordam berdi. Chiroqchi tumanining Quruqsoy qishlog‘i hududida topilgan so‘nggi paleolit davriga oid Siypantosh yodgorligi ham tarixiy geografiyaga oid ko‘plab ma‘lumotlarni o‘zida saqlab qolgan. Xususan, qoyatoshda chizilgan yirik shoxli Buqa hozirda uchramaydi. Bu qoyatoshda ko‘plab yozma chizmalar mavjud va unda ovchilarning ish qurollari tasvirlangan. Yodgorlikni N. Xushvaqov so‘nggi paleolitning 18.000 yilliklari Madlen davri bilan sanalashtirgan¹⁴. Tadqiqotchi O‘. Mavlonovning fikricha, ibtidoiy qabilalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar o‘rnatilishi natijasida dastlabki aloqa yo‘llari rivojlanib va yangi tabiiy boy hududlarni o‘zlashtirish boshlanadi¹⁵.

Tadqiqotchilarning hisob-kitoblariga ko‘ra, qadimiy ovchilar va termachlik bilan shug‘ullanuvchi qabilalarning xo‘jalik hududi va joylashuvi zichligi 100 kv.m. da 1-5 kishi, ko‘chib yurib termachlik qiladiganlarning zichligi 100 kv.m. da 1 kishi, ovchilar esa 100 kv.m. da 5 kishi to‘g‘ri keladi¹⁶. Bu hisob-kitob ko‘proq tog‘oldi, adirlar va cho‘l hududlariga to‘g‘ri keladi. Kesh viloyatining ham tadqiq qilinayotgan qadimgi davrlaridagi tabiiy landshaft (Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘, Qamashi kabi tumanlar) Turkmanistonning Kopetdog‘ tog‘oldi hududlari, adirliklari va cho‘liga (Chiroqchi, Qamashi va G‘uzor kabi tumanlar) o‘xshash bo‘lgan.

O‘zlashtiruvchi xo‘jaliklar-termachilik, ovchilik, baliqchilik va chorvachilikka o‘tish, insoniyat tarixini butunlay boshqa xo‘jalik turlarining kashf etilishiga olib keldi. Ilk dehqonchilik manzillari kichik soylar atrofida joylashib, daryolar qirg‘og‘ini o‘zlashtira boshlagani Qamashi tumanidagi Langarsoy atrofida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Qadimgi Kesh viloyati aholisining dini, Kesh viloyati siyosiy birligining boshqaruv tizimi, viloyat va rustoqlarning chegaralari, siyosiy va ma‘muriy bo‘linishi, Kesh viloyatining markaziy (poytaxt) shahri va rustoqlarda joylashgan kichik shaharchalar, qo‘rg‘onlar, qishloqlar, viloyatdagi tarixiy-siyosiy voqealar o‘rni, harbiy yurishlar marshruti, urushlar sodir bo‘lgan joylar, milliy-ozodlik uchun kurash bo‘lib o‘tgan voqealar xaritasi tadqiqotchilarning ilmiy maqolalarda uchrasa-da, umumlashma fundamental monografik asarlar yaratilmagan.

Antik davrdagi ma‘lumotlar Sug‘dning tarixiy-geografik jihatdan asosiy qismi cho‘ldan iborat, aholi esa faqat daryo bo‘ylarida yashagan, degan noto‘g‘ri xulosaga olib kelgan. Bu ma‘lumotlar Ptolemey, Pliniy, Strabonda ham uchraydi. Strabon Sug‘ddagi daryoni makedonlar Politimet deb ataganligi, suvidan

¹⁴ Хушвақов Н. Кеш тарихи ва маданияти (Шахрисабз давлат музей-қўриқхонаси материаллари асосида). Тарих фанлари доктори диссертацияси. – Қарши, 2023. – Б. 37.

¹⁵ Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 8-16.

¹⁶ Лисицын Г.Н. Становление и развитие орошаемого земледелия в Южной Туркмении. – М.: Наука. 1978. – С. 69.

dehqonchilikda foydalanilishi va foydalanilmagan daryo suvi cho‘l orasida singib ketishini yozib qoldirgan¹⁷.

Qadimiy qo‘lyozma manbalardan Avestoda Airyanem-Vaedja mamlakatidan so‘ng Sug‘diyona yirik Zardushtiyar mamlakati sifatida qad etiladi. Bronza davriga oid Panjikentdagi ibodatxonadan devoriy suratlarining topilishi muhim madaniyat markazi ekanligini isbotlaydi. Bundan tashqari Samarqand viloyatiga qarashli Urgut tumanidagi Kofirqaladan topilgan taxtada aks etgan Zardushtiylik dini-Mitra va uning izdoshlari aks etgan panno¹⁸ qadimiy dinning falsafasi yaratilgan yurt sifatida qarashga undaydi.

Qadimiy Kesh joylashgan Qashqadaryo viloyatining tog‘li hududlari keng yaylovlar va tekisliklardan iborat bo‘lib, ko‘rinishidan Qozoqiston hududidagi ko‘chmanchilarga oid Andronova madaniyati sohiblari eramizdan oldingi ikkinchi ming yilliklarning boshlarida o‘troqlashuvni boshlagan bo‘lsa kerak. Aholi orasida ko‘chmanchi kabilar ham mavjud bo‘lgan, Masalan, Kitob tumani bilan chegaradosh Jom cho‘llarida Andronova madaniyatiga oid ko‘plab mozor-qo‘rg‘onlar va kichik yashash manzillari uchraydi¹⁹.

VI asrga mansub Xitoy manbalarida Keshlik suvoriylarning “Navro‘z bayramini nishonlashda ot ustidan turib, kamondan mayda mis tanga pullarni urish o‘yini musobaqasi o‘tkazilishi” haqidagi yozma matn mavjud. Matnda g‘olib chiqqan suvoriy shu kuni (bir kun – muallif) Podshoiy oliy etib tayinlashi qayd etilgan. Haqiqatdan ham antik davrga oid Kesh tangasida kamondan o‘q uzayotgan suvoriy tasviri uchraydi²⁰. Yuqoridagi yozma manbalar Keshning dastlabki aholi tarkibi ko‘chmanchilar bilan birga o‘troq aholinning birgalikda yashaganidan dalolat beradi.

Qadimgi Kesh tarixiy geografiyasiga oid masalalarga ilmiy asosda qarash XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan, deb hisoblash mumkin. Masalan, shu davrlarda g‘arbiy Yevropa olimlaridan M. Bril, F. Jasti, X. Yul, V. Geyger, V. Tomashek, A. Steyn kabi tadqiqotchilar Avesto yozma manbalariga asoslangan holda Kesh geografik hududidagi geografik nomlarga e‘tibor bera boshlashgan²¹. Shu davrda tadqiqotchilar Avestoda uchraydigan geografik nomlarning joylashgan o‘rni haqida ilmiy taxminlarini ilgari sura boshlashgan.

Keshning antik va ilk o‘rta asrlarga oid tarixiy geografiyasi masalasida yaxlit tadqiqotlar amalga oshirilmagan. XX asrning 30-yillaridan boshlab arxeologik tadqiqotlarning boshlanishi va 1950-yillarda M.Y. Masson va G.A. Pugachenkovaning tadqiqotlari, yozma manbalarning tahlili munosabati bilan masalaning u yoki bu

¹⁷ Пьянков И.В. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. – Душанбе: Дониш, 1975. – С. 191.

¹⁸ Бердимуродов А. Кифирқалъа – Суғд хукмдорларининг қароргоҳи. ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/amriddin-berdimurodov...

¹⁹ Avanesova N. Археология Средней Азии: энеолит и бронзовый век. [academia.edu/44284598/Археология Средней Азии ... век](http://academia.edu/44284598/Археология_Средней_Азии..._век)

²⁰ “Шахрисабз” давлат музей-қўриқхонасининг “Қадимги кееш тарихи ва маданияти экспозициясида намайиш этилмоқда.

²¹ Boyce M., Grenet F.A History of Zoroastrianism. Leiden. – New York: Kobenhavn-Köln, 1991. – Vol. III. – 596 p., Geiger W. Ostiranische Kultur im Altertum. Erlangen, 1882. – 520 s.; Herzfeld E. Zarathustra // AMI. 2. 1930. – P. 1-48, Herzfeld E. Awestische Topography. // AMI. 2. 1930. – P. 49-98, Herzfeld E. Archaeological history of Iran. – London, 1935; Herzfeld E. Zoroaster and his World. Princeton, 1947. – Vol. I-II. – 821 p.; omashek W. Centralasiatische Studien. I. Sogdiana // SWAW. - 1877. – P. 87, Tomashek W. Zur historischen Topographie von Persien, I: Die Strassenzüge der Tabula Peutingeriana // SWAW. 1883. – CII. – P. 144-231, Yule H. The geography and history of the upper waters of the Oxus // Wood J. A journey to the source of the river Oxus. – London, 1872.

tomonini yorituvchi ma'lumotlar nashr etildi. V.V. Bartold, I.Y. Krachkovskiy, S.B. Lunina, M.Y. Masson, Sh. Kamaliddinov, Z. Saidboboyev va N.O. Xushvaqovlarning monografiya va maqolalarini alohida tilga olish mumkin.

Kesh tarixiga ilmiy tarzda yondashishga birinchi bo'lib mashhur sharqshunos olim V.V. Bartold kirishgan²². 1925-yilda Shahrisabzga sharqshunos V.V. Bartold, arxeolog o'lkashunos V.L. Vyatkin, me'morchilik bo'yicha san'atshunoslar B.N. Denike va E. Kon-Vinerlar o'rganishgan. 1926-yilda esa A.Y. Yakubovskiy tomonidan ilk bor marta tarixiy topografiyasi tadqiq qilingan²³. 1930-yillardan boshlab arxeologik va me'morchilik yodgorliklarini Y.G'. G'ulomov, T. Mirg'iyozov va S.K. Kabanovlar tadqiq etishni boshlagan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida UZKOMSTARISning inspektor vakillari sifatida (1942-yil) M.Y. Masson va G.A. Pugachenkovalarning Shahrisabz shahri hududida olib borgan tadqiqotlari natijasida qadimgi Kesh viloyati, uning markaziy shahri va rustoqlarining tarixiy geografiasini tadqiq etish boshlandi²⁴.

Ular ilk bora Shahrisabz hududida olib borgan arxeologik qazishmalar hamda kuzatishlarida Keshning tarixiy topografiyasini aniqlash natijasida yozma manbalar bilan qiyosiy tahlil qilib qadimiy shahar Kitob shahri o'rnidagi Qalandartepa o'rnida joylashganini isbotladilar. Shu yillarda (1946–1948-yillar) S.K. Kabanov Keshda dastlabki arxeologik qazishma ishlari olib borgan²⁵.

S.K. Kabanov 1955–1957-yillarda Chimqo'rg'on suv ombori o'rnidagi Ovultepa, Jangaltepa, Katta va Kichik Qiztepa, Toshtepa kabi yodgorliklar tadqiq qilgan²⁶. Tom ma'noda Keshning tarixiy geografiasini o'rganish ishida M.Y. Masson tomonidan 1963-yilda "Kesh Arxeologik Topografik Ekspeditsiyasi"ni tashkil etish natijasida ko'plab arxeologiya olamida kashfiyotlar sodir bo'ldi²⁷. N.I. Krasheninnikova Kitob-Keshi hududida, Shahrisabz-Keshi hududda esa Z.I. Usmanova va S.B. Lunina, Yakkabog' tumanida G. Dresvyanskayalar tadqiqotlar olib borishgan. N.I. Krasheninnikovaning Shurobsoy vodiysidagi Podayotoqtepa, Uzunqir va Sangirtepadagi, Kitob shahridagi markazi bozor atrofida joylashgan Qalandartepadagi tadqiqotlari taqsiinga sazovor ishlar hisoblanadi²⁸. S. Kabanov, G. Dresvyanskaya va Z. Usmanovalar 1976–1985-yillarda Yakkabog' tumanida joylashgan arxeologik yodgorliklarning xaritasini yaratish borasida dala tadqiqot olib borib 300 dan ziyod arxeologik yodgorlik aniqlashgan²⁹. Ma'lumotlarga ko'ra,

²²Бартольд В.В. Туркестан под владычеством монголов (1227-1269 гг.). Соч. т. I, 1963. – С. 543-544. т. II, ч.2. – С. 423-454.

²³Якубовский А. Ю. Краткий полевой отчет о работах Зарафшанской археологической экспедиции Эрмитажа и ИИМК в 1939 г., ТОВЭ. Т. 2. – Л., 1940. – С. 16-19.

²⁴Массон М.Е. Работы Кешской археолого-топографической экспедиции (КАТЭ) по изучении восточной половины Кешской области Уз ССР 1966 г. Археология Средней Азии. Сборник научных трудов ТашГУ. – №533. – Ташкент, 1977; Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Шахриябз при Тимуре и Улугбеке. Труды Среднеазиатского Государственного университета. Вып. XLIX, Археология Средней Азии. – Ташкент, 1953.

²⁵Кабанов С.К. Археологические разведки в верхней части долины Кашка-Дарьи. Труды Института истории и археологии. Вып. 7. – Ташкент, 1955. – С. 77-114;

²⁶Кабанов С.К. Культура сельских поселений Южного Согда II-VI вв. – Ташкент, 1981.

²⁷Крашенинникова Н.И. Разрез крепостной стены древнего Кеша // ОНУ, 1968. – №8. – С. 60-64.

²⁸Крашенинникова Н.И. Работы в Китабском и Шахрисабском районах. АО 1981 года. – М., 1983. – С. 460.

²⁹Дресвянская Г.Я. Комплекс памятников Тырнасяя. Материалы к археологической карте. Материалы по истории, историографии и археологии. Сборник научных трудов ТашГУ, №639. – Ташкент, 1980. – С. 25-29.

ularning 20 foizini antik, 70 foizi ilk o'rta, 30 foizi esa rivojlangan o'rta asrlarga mansub³⁰.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Kesh viloyatining shakllanishida geografik omillarning ta'siri”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobning birinchi paragrafida *“Sug'dning tarixiy geografiyasi masalalari”*, xususan, Sug'dning tarixiy geografiyasi borasida tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ko'plab izlanishlar yuzasidan o'ziga xos yondashuvlar va ilmiy xulosalari ko'rib chiqilgan.

Qadimgi Kesh viloyati Sug'diyonaning muhim tarixiy-geografik vohasidir. Kesh viloyati O'zbekistonning janubida joylashgan va u Qashqadaryoning yuqori qismidagi hududlarni egallaydi. Kitob-Shahrisabz botig'i va uning atrofidagi hududlar asosan Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi tumanlarning hududlari va G'uzor hamda Qamashi tumanlarining bir qismi, Qashqadaryo havzasining sharqiy tog'li qismlarini o'z ichiga oladi. Kitob-Shahrisabz botig'i to'g'risida anchagina ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, lekin, botiqning chegaralari va qaysi hududlar aynan shu botiqqa kirishi to'g'risida aniq hamda asoslangan fikr mulohazalar yo'q. “Botiq” – deb Yer yuzasidagi barcha tomondan berk yoki bir tomonda yoxud oqib o'tadigan daryo tufayli ikkala o'zaro qarama-qarshi yo'nalishlarda ochiq bo'lgan pastlikga nisbatan aytiladi³¹.

Keshning mutloq balandligi 500 metrdan 4145 metrgacha o'zgaradi. Bu hududning o'rta qismi balandligi dengiz sathidan 500-700 metr bo'lgan tekisliklar bilan band. Kitob-Shahrisabz botig'i sharqqa, shimolga va janubga tomon ko'tarilib borgan holda g'arbiga tomon pasaygan. Keshning adirlari 600 metrdan 1500 metrgacha bo'lgan mutloq balandliklarda joylashgan bo'lib, geologik jihatdan mezozoy, paleogen va neogen yotqiziqlaridan tuzilgan. Adirlar mintaqasining eni 8-18 km³².

Adirlar polosasi Qoratepa etaklaridan boshlanib G'uzor tumanining tog'li qismigacha cho'ziladi. Adirlar polosasi Qoratepa, Miroqi, Yakkabog' va G'uzor adirlari umumiy nomlar bilan ataladi. Adirlar polosasini ko'pgina daryolar (Qashqadaryo, Jinnidaryo, Qizildaryo va boshqalar.) va soylarning vodiylari kesib o'tadi. Shu sababli adirlar parchalangan eroziya relyefiga ega. Bu adirlarni davriy oqimga ega bo'lgan soylar (Makridsoy, Qalqamasoy va b.) kesib o'tadi. Miroqi adirlari Qashqadaryo, Oqsuv va Jinnidaryolarning o'rta oqimida joylashgan bo'lib, sharqda Sumsar va Shertog' massivlari bilan bilinar-bilinmas tutashib ketgan.

Tanhozdaryo, Yakkabog'daryo, Guldarasoy va Langardaryo havzalarida anchagina keng maydonlarni egallab yotgan Yakkabog' adirlari tog'lar va tekisliklar orasida yaqqol ajralib turadi. Langardaryo daryosining tog' vodiysidan janubi-g'arb tomonga yo'nalgan qirlar G'uzor adirlarini hosil qiladi. Adirlar lyoss jinlaridan tuzilgan bo'lib, ularning yuzasi yassilangan tekis ko'rinishli. Lyoss qoplaminin g'arbda 10-15 metr, sharqda tog' etaklarida 2-2,5 metrgacha boradi.

³⁰ Дресвянская Г.Я. К районированию археологических памятников раннего средневековья (по материалам Яккабагского района). ОНУ, 1985. – № 10. – С. 25-29.

³¹ Энциклопедический словарь географических терминов. – М., 1968. – 156 с.

³² Маматов А.А. Қашқадарё вилояти географияси. – Қарши, 1994. – Б. 16-29.

Zarafshon tizmasining g'arbdagi davomi bo'lgan Chaqilkalon va Qoratepa tog'lari Kitob-Shahrisabz botig'ini shimolda va qisman shimoli-sharqdan o'rab turadi. Kenglik yo'nalishidagi Zarafshon tizmasining Qashqadaryoning yuqori oqimidan to Taxtaqoracha dovonigacha bo'lgan qismini Chaqilkalon tog'lari tashkil etadi. Chaqilkalon tog'larining janubiy yonbag'irlari ancha tik bo'lib, devon, silur va karbon davrlarning ohaktosh, giltosh, slanets va ular orasida yorib kirgan magmatik jinslardan tarkib topgan. Chaqilkalon tog'larining o'rtacha mutloq balandligi 1800-2300 metr bo'lib, eng baland joyi (2336 m) Zebon cho'qqisidir³³. Mazkur hududda O'rta Osiyoda yagona bo'lgan va qadimiy ma'danlardan tashkil topgan Kitob geologik qo'riqxonasi G'arbiy Zarafshon tizmasining janubi-g'arbiy yon bag'rida joylashgan.

Qashqadaryo, uning o'nlab irmoqlari bo'lgan daryolar va katta-kichik soylari, Hisor va Zarafshon tizmalaridan oqib keluvchi daryolar va soylar bo'ylarida dehqonchilik va bog'dorchilik uchun o'ta qulay sharoit, dehqonchilik vohalari hosil bo'lib, bundan tashqari keng yaylovlar, o'tloqlar o'lkada juda qadimdan oq insonlarning hayot kechirishiga, tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida qadimiy qabilalarning o'troqlashuviga va dehqonchilik, shaharsozlik madaniyatlarining shakllanishiga va yuksak darajada rivojlanishiga zamin yaratgan. Mana shu qadimiy shaharlar, qishloqlar, qo'rg'onlar va boshqa manzilgohlarning xarobalari, cho'l va dashtlardagi chorvador ko'chmanchi aholining mozorqo'rg'onlari bizning kunlargaacha turlicha ko'rinishdagi arxeologik yodgorliklar sifatida yetib kelganlar.

Keshning antik va ilk o'rta asrlarga oid tarixiy shaharlari, qishloqlari va qo'rg'onlarini tadqiq etish murakkab hisoblanadi. Bu masalada yozma manbalar hamda arxeologik manbalarning qiyoslanishi lozim. Keshning o'rta asrlar, jumladan, VIII-XII asrlarga oid shaharlarining joylashuvi o'tgan asrning 70–80-yillarida S.B. Lunina va M.Y. Masson tomonlaridan tadqiq etilgan. Biroq oradan 50 yil o'tib, yangi tadqiqotlar avvalgi tarixiy tassavvurlarimizni o'zgartirib yubordi. S.B. Luninaning fikricha, Kesh viloyati hamda uning markaziy shahri ham Kesh deb atalgan. Viloyatning shaharlari esa Qashqadaryoning yuqori oqimidagi maydonni qamrab olgan va hozirda Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz shahri va tumani, Yakkabog', Qamashi, G'uzor, Dehqonobod tumanlarida joylashgan³⁴. Shahar va qishloqlarning urbanizatsiyasi darajasi turli xil tarixiy geografik hududlarda landshaft, iqlim, suv taminoti, sug'orma dehqonchilik uchun resurslar, qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasi va yo'l tarmoqlari kabi masalalarga bog'liq. Bundan tashqari shahar va qishloqlarni vujudga kelishida siyosiy birlashmalar va shaharsozlik elementlarining mavjudligiga ham bog'liq bo'ladi.

Manbalarda "Bab al-Hadid", yani "Temir darvoza" Sug'diyona hududiga qarashli ekani va to'g'rirog'i u Kesh viloyatiga mansubligi haqida ma'lumotlar uchraydi³⁵. B. Eshov Temir darozani Sug'diyona va avval Baqtriya bilan, keyinchalik esa Toxariston orasidagi chegara va chegaradagi bojxona bo'lishi

³³ Заповедные территории Ўзбекистана. Кол-в авторов. Под редакции А. Бабаева. – Ташкент, 1990. – С. 47.

³⁴ Лунина С.Б. Города Южного Согда VIII – XII вв. – Ташкент, 1984. – С. 8.

³⁵ Эшов Б., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2015. – Б. 67. Ahmad ibn Abu Jakub ibn Wadhih al-Jakubi. Kitab al-buldan / Ed. M.J. de Goeje. Bibliotheca geographorum arabicorum. Pars 7. Lugduni Batavorum: E.J. Brill, 1967. – P. 290.

kerak, deb hisoblaydi³⁶. Sh. Kamoliddinov ham aynan VI-VII asrlarda Sug‘diyona va Toxariston bilan chegara bo‘lgan, deb yozadi³⁷.

Kesh hududidagi arxeologik tadqiqotlar natijasida yozma manbalarda qayd etilgan 3 ta rustoqdan tashqari 14 dan ziyodroq yangi manzillar aniqlangan, mutaxassislarning fikricha, rustoqlarning markazida yirik shaharchasi yoki qo‘rg‘onlari ma‘muriy markaz bo‘lishi mumkin³⁸.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, Kesh viloyati hamda uning markaziy shahri ham Kesh deb atalgan. Ushbu qadimgi viloyatning shaharlari esa Qashqadaryoning yuqori oqimlaridagi maydonni qamrab olgan hamda hozirgi Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz shahri va tumani, Yakkabog‘, Qamashi, qisman G‘uzor va Dehqonobod tumanlarida joylashgan. Ilk va rivojlangan o‘rta asrlar davrida Kesh vohasi aholisi asosan tog‘ va tog‘oldi hududlarda joylashganlar. Xususan, Chiroqchida 38 ta, Qamashida 29 ta, Yakkabog‘, Kitob va Shahrisabzda 200 dan ziyod arxeologik yodgorliklar qoldiqlari aniqlangan. Yozma manbalarda esa Oqsuv, Tanhozdaryo, Qizildaryo kabilardan suv olgan 16 ta rustoqi (Miyon, Siyom, Kashkrud, Xushkrud, Rasmain, Arg‘on, Aru va boshq.) mavjud bo‘lgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Kesh viloyatining Sug‘diyona-dagi siyosiy va madaniy jarayonlarda tutgan o‘rni”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, uning birinchi paragrafidagi *“Sug‘d vohasining davlatchiligi va siyosiy tarixi”* masalalari yoritilgan.

Ilk temir davrida O‘rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o‘rin egallagan Sug‘diyona o‘lkasi yuqorida ta‘kidlaganimizdek, turli qadimgi manbalarda Sug‘da, Sug‘uda, Sug‘diyona nomlari ostida eslatib o‘tiladi. Bu nomlarning kelib chiqishi va ularning ma‘nosi haqida hozirchi aniq fikr yo‘q. Ayrim tadqiqotchilar (V. Tomashek) bu nomni eroncha *“SUS”* – *“yonmoq, yaltiramoq, nur taratmoq”* so‘zidan olingan desa, ayrimlari (O. Smirnova) bu *“Gava sug‘uda”* atamasi *“hosildor vohalar o‘lkasi”* degan ma‘noni beradi, deb hisoblaydilar. Avestoning Yasht kitobida tilga olingan *“Sug‘d makoni Gava”* – Sug‘diyona-ni eng qadimgi viloyati bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra (A. Sagdullayev), Gava (Gau) – *“buqa”, “poda”,* Qashqadaryo vohasi bilan bog‘lanadi. Bu so‘z viloyatning juda ko‘p geografik nomlarida takrorlanib saqlangan (Gavdara, Gauxona, Gaumurda, tog‘lar Gau, cho‘qqi Gau va boshqalar)³⁹.

